

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "Mobil aloqa texnologiyalari" kafedrasida katta ilmiy xodim tadqiqotchisi Akmal Muratovich Inogomov 05.04.02-Radiotexnika qurilmalari va tizimlari ixtisosligi bo'yicha "Optik tolalarni kamyoq yer elementlari bilan modifikatsiyalash usullari va ularning spektral tavsifi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib texnika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi. Unga O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor Rajabov Telman Dadaevich ilmiy rahbar bo'lgan.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "Teleradio eshittirish tizimlari" kafedrasida katta o'qituvchisi Baxtiyorjon Raximov Nematovichga 05.04.02-Radiotexnika qurilmalari va tizimlari, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televidenie. Mobil, tolali optik aloqa tizimlari ixtisosligi bo'yicha "Optik tolali aloqa tizimlariga asosan mexanik konstruktiv xususiyatlarini nazorat va diagnostikalash usullari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgani uchun texnika fanlari doktori ilmiy darajasi berildi.

Uning ilmiy rahbari ham O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor Radjabov Telman Dadaevich bo'lgan.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tadqiqotchisi Beknazarova Saida Safibullaevna "Axborot resurslariga TIAV-multimedia tizimlarida axborot resurslariga diskret-uzluksiz ishlov berish jarayonlarini modellashtirish usullari», 05.01.04-Hisoblash mashinalari, majmua va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti (texnika fanlari).mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib texnika fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

Unga Abdurahmonov Qahhor Pattaxhovich fizika-matematika fanlari doktori, professor ilmiy rahbarlik qilgan.